2-ilova - Rivojlantirish xizmatlari

USHBU ILOVA 10.06.2022 YILGA QADAR AMAL QILGAN

E'tibor bering! OLX.uz servisi qoidalarining 7-bo'lim, 5-bandiga muvofiq: *OLX Group e'lon yoki uning pozitsiyasiga qiziqishning haqiqiy o'sishi sifatida tushuniladigan Rivojlantirish xizmatlarining samaradorligi uchun javobgar emas.*

1. Xizmatni taqdim etish doirasida OLX Group Foydalanuvchilarga pullik rivojlantirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, masalan:

1. **Yuqoriga ko'tarish** - E'lonni ushbu Kategoriyadagi E'lonlar ro'yxati boshiga va E'londa ko'rsatilgan joyga mos keladigan E'lonlar ro'yxati boshiga joylashtirishdan iborat;
2. **TOP** - bu E'lonni Veb-saytning maxsus qismida navbatma-navbat namoyish qilishdan iborat. **Top e'lonlar** saytning har bir bo'limi va saxifasi uchun odatiy e'lonlar ro'yxatining yuqorisida joylashgan xuddi shu nomdagi maxsus blokda namoyish etiladi. Shuningdek, mazkur blok saytdagi ichki qidiruv natijalari bilan ro'yxatning yuqori qismida, fotolarda "TOP" belgisi bilan ko'rsatiladi.
3. **Premium e'lonlar** - bu Veb-saytning asosiy sahifasida ko'rsatilgan Premium e'lonlarga bag'ishlangan bo'limda e'lonlarni navbatma-navbat namoyish etishdan iborat. Ushbu xizmat faqat saytning desktop (kompyuter) versiyasida mavjud.

2. Rivojlantirish xizmatlari quyida keltirilgan Yengil start, Tezda sotish va Turbo sotish paketlarida ham taklif etiladi:

Rivojlantirish xizmatlari paketlari	Mazkur rivojlantirish xizmatlari Paketi doirasida taklif etilayotgan rivojlantirish xizmatlari		
	Yuqoriga ko'tarish	TOP	Premium e'lonlar
Yengil start	-	3 kun	-
Tezda sotish	3-marta (2chi, 4 chi va 6 chi kunlarda*)	7 kun	-

Turbo sotish	9-marta (3 chi, 6 chi, 9 chi, 12 chi, 15 chi, 18 chi, 21 chi, 24 chi va 27 chi kunlarda*)	30 kun	7 kun

* Rivojlantirish xizmatlari paketlari ishga tushirilgandan buyon.

3. **“Ish beruvchining pullik logotipi”** xizmati, “Ish” kategoriyasida ham mavjud. Ushbu xizmat Ish beruvchi yoki uning tijorat faoliyatini (logotipini) aniqlaydigan grafik belgini Ish beruvchi tomonidan qo‘shishdan va uni E’lon va E’lonlar ro‘yxatida 30 kun davomida namoyish qilishdan iborat.

4. Ba’zi Rivojlantirish xizmatlari quyidagi 6-bandga muvofiq OLX Group hisob raqamiga ushbu Rivojlanish xizmatlarini sotib olish uchun Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan to‘lov kelib tushgandan keyin kuchga kiradi va quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **E’lonni “Yuqoriga ko‘tarish” xizmati** - “Yuqoriga ko‘tarish” pullik xizmatini bir martalik sotib olinishida E’lon bir marta yangilanadi; “7 Yuqoriga ko‘tarish ” sotib olinganda E’lon avtomatik ravishda kuniga bir marta ketma-ket 7 kun davomida yangilanadi yoki Qoidalarning 4.7-bandida ko‘rsatilgan E’lonni joylashtirish muddati tugaguniga qadar. E’lonni yuqoriga ko‘tarish bir hil vaqtda, E’lonni birinchi yuqoriga ko‘tarish vaqtidan 2 soatlik oraliq ichida amalga oshiriladi;
2. **“TOP” E’lon xizmati** - Foydalanuvchi tanlovi bo‘yicha - 3, 7 yoki 30 kun ichida ketma-ket yoki Qoidalarning 4.7-bandida ko‘rsatilgan E’lonni joylashtirish muddati tugaguniga qadar;
3. **Veb-saytning asosiy sahifasidagi “Premium e’lonlar" xizmati (desktop versiyasi)** - 7 kun ichida ketma-ket yoki Qoidalarning 4.7-bandida ko‘rsatilgan E’lonni joylashtirish muddati tugaguniga qadar.

5. Agarda Foydalanuvchi E’lon uchun Rivojlantirish xizmatini sotib olishga qaror qilsa va ushbu xizmatning amal qilish muddati E'lonning amal qilish muddatidan oshiq bo'lsa, E'lonning amal qilish muddati uzaytirilmaydi va Qoidalarning 4.8-bandiga muvofiq 30 kunni tashkil qiladi.

6. Rivojlantirish xizmatlari, Rivojlantirish xizmatlari paketi va Ish beruvchi Logotipi uchun tariflar E’lon joylashtiriladigan Kategoriyaga va uning amal qilish muddatiga bog'liq, Rivojlantirish xizmatlari paketida esa - tanlangan paket turiga bog‘liq bo‘lib, nashr etish jarayonida ko‘rsatiladi.

7. Foydalanuvchi tomonidan e’lon olib tashlaganligi, yoki Pozitsiyaning sotilishi, yoki Foydalanuvchi tomonidan e’lon mavzusi avvaliga tegishli bo‘lgan Pozitsiyadan boshqasiga tegishli ekanligini ko‘rsatib o‘zgartirilganda TOP e’lon, Veb-saytning asosiy sahifasidagi Premium e’lon, Rivojlantirish xizmatlari paketi qo'llanilgan e’lon, Ish beruvchi Logotipi ko'rsatilgan e’lon namoyish etilishi muddati tugashidan oldin bekor qilingan taqdirda, ushbu xizmatni 30 kunlik muddat tugagunga qadar qayta yoqishni imkoni bo‘lmaydi.

8. Mazkur ilova bilan tartibga solinmagan masalalarga nisbatan Qoidalar nizomlari qo‘llaniladi.